

## GENDERGA OID AUDIT O‘TKAZISH METODOLOGIYASI

Bibioliya Axmadjonovna Saidboboyeva

Toshkent davlat yuridik universitetining

Xalqaro huquq va inson huquqlari yo‘nalishi magistranti

[bsaidbabaeva@gmail.com](mailto:bsaidbabaeva@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14752309>

### Kirish

Genderga oid audit o‘tkazish tushunchasi va uning huquqiy asoslariga bugungi kunda ijtimoiy hayotning asosiy sohalarida gender tengligiga erishish hamda uni jamiyatda ta‘minlash kun tartibiga qo‘yilayotgan asosiy maqsadlardan biriga aylanib borayotganligini ko‘rish mumkin.

Jumladan, mamlakatimizda so‘nngi yillarda gender tenglik tamoyilini jamiyatga singdirish bilan bog‘liq islohotlar diqqatga sazovor hisoblanadi. Jumladan, oxirgi o‘n yillik ichida, gender tenglikni ta‘minlash, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning davlat va jamiyat boshqaruvida rolini oshirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining 2 ta Qonuni, Prezidentning 9 ta Farmon va qarori, hukumatning 18 ta qarori qabul qilindi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining tegishli qarori bilan “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi” ishlab chiqilgan va hayotga tatbiq etilmoqda.<sup>1</sup>

Butun dunyo bo‘ylab barcha sohalarida gender tenglikka erishish yuzasidan chora tadbirlar, qarashlar va ilg‘or tajribalar genderga oid kompleks yondashuv (gender mainstreaming) sifatida shakllantirilib, aksariyat mamlakatlarning gender tenglikka erishish borasidagi siyosatlari ham aynan ushbu kompleks yondashuv asosida yuritilmoqda. Genderga doir kompleks yondashuv -xalqaro darajada tenglikka erishish strategiyasi hisoblanib, u o‘z tarkibiga ayollar va erkaklar uchun tenglikni ta‘minlash, kamsitishning har qanday shakllarini bartaraf etish bo‘yicha siyosat, tartibga solish choralari va harajatlar dasturlarini tayyorlash, ishlab chiqish, amalga oshirish, monitoring qilish va baholashga oid gender nuqtai nazari bo‘yicha integratsiyalashuvni o‘z ichiga oladi.

Genderga doir kompleks yondashuvni amalga oshirish shartlari amalga oshirish rejasi, bevosita ishtirok etuvchi tuzilmalar, moliyaviy resurslar, javobgarlik mexanizmlari, bilimli va salohiyatli kadrlar, gender ekspertiza, manfaatdor tomonlarning ishtirokidan iborat.

Genderga oid audit-genderga doir kompleks yondashuvning asosiy usul va vositalaridan biri hisoblanadi. Genderga oid audit-gender jihatlarini inobatga olgan holda byudjetlashtirish va mablag‘larni yo‘naltirishdan so‘ng ajratilgan mablag‘larning gender tamoyilini ta‘minlash bo‘yicha mavjud qonun va qonunosti hujjatlariga qay darajada to‘g‘ri yo‘naltirilganligini o‘rganib chiqish mavjud hisobotlarni va moliyaviy holatni emas, balki tashkilotning boshqaruv jarayoni va mehnat munosabatlarida gender tenglik normalariga amal qilishini o‘rganadi va tavsiyalar beradi.

Genderga oid audit bu ish beruvchi va ishchilar o‘rtasidagi faol ish jarayoni bo‘lib, genderga oid auditda ushbu tizim tashkilotlarining ish faoliyatida gender tamoyillari amalda qay darajada qo‘llanilayotganligini aniqlash bo‘yicha ko‘mak beradi. Umumiy qilib aytganda, genderga oid audit korxonalar va tashkilotlarning siyosatida, dasturlarida, tashkiliy

<sup>1</sup> “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining tasdiqlash haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining SQ-297-IV-sonli qarori. 28-may 2021-yil.

tuzilmalarida va qaror qabul qilish jarayonida, moliyalashtirishda gender tengligi tamoyillari ta'minlanayotganligiga ahamiyat beriladi.

Gender audit o'tkazilishidan asosiy maqsad: tashkilotlarda gender yondashuvining qanchalik samarali ekanini, shuningdek ularni amalga oshirishni qo'llab-quvvatlovchi, tizimning turli yo'nalishlarida moslashuvchanligini, gender tengligi yuzasidan nisbiy o'zgarishlarni tahlil etadi, baholaydi, sohadagi gender tengligini joriy qilishga to'siq hamda muammolarni aniqlaydi, aniqlangan muammolar yuzasidan aniq takliflar berib, samarali bo'lgan yangi strategiyalar taqdim etadi, gender tengligiga erishish bo'yicha ijobiy tajribalarni umumlashtiradi.

Bugungi kunda genderga oid auditni o'tkazishda xalqaro tashkilotlar, asosan, ikki yondashuvdan foydalanadilar: hamkorlikdagi gender audit- (PGA) va gender integratsiya mezonlari (gender integration framework-GIF) va mazkur yondashuvlar bir-biridan farqlanadilar.

Genderga oid auditni birinchilardan bo'lib o'tkazgan tashkilotlardan biri bu Xalqaro Mehnat Tashkiloti bo'lib, hamkorlikdagi gender audit (PGA) metodologiyasidan foydalangan holda tahlilni amalga oshiradi. Ushbu auditning maqsadi gender tengligini joriy etishga qaratilgan tashkiliy ta'limni rivojlantirishdan iborat.

Hamkorlikdagi genderga oid audit yordamida tashkilot o'z muassasalarida, mehnat jarayonida, o'z siyosati, kadrlar siyosati, taqdim etayotgan loyiha va xizmatlarida genderga doir kompleks yondashuv talablari qay darajada bajarilganligini baholaydi.

Ikkinchi yondashuv- 1999-yilda AQSHdagi eng yirik nodavlat tashkilotlar birlashmasi bo'lgan InterAction tomonidan ishlab chiqilgan.<sup>2</sup>

Genderga oid audit o'z navbatida ikki qismdan iborat hisoblanadi, ular ichki va tashqi qism bo'lib, ichki auditda asosan, tashkilotning tashkiliy, boshqaruv tuzilmasi va ichki faoliyati doirasida gender tengligi tamoyillarining qanchalik ta'minlayotganligini baholashni bildirsa, tashqi auditda esa, tashkilot faoliyatining mazmuni, amalga oshirish va baholash nuqtai nazaridan o'z siyosati, dasturlari, loyihalari va xizmatlariga gender masalasini qanchalik muhim yo'nalish sifatida kiritishini baholashni nazarda tutadi.

Xulosa qilib aytganda, genderga oid audit mamlakatimizda gender tengligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan siyosatning ajralmas qismi hisoblanadi.

Genderga oid audit natijalari xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlashning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanuvchi ochiqlik va shaffoflik tamoyili asosida e'lon qilinishi lozim. Xalqaro maydonda ham mazkur tajriba keng qo'llaniladi va har bir davlat organi va tashkilot faoliyati bo'yicha o'tkazilgan genderga oid audit natijalari to'g'risida O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishi belgilab qo'yilgan.

O'z navbatida milliy qonunchiligimizga genderga oid audit tushunchasining kiritilishi, uni o'tkazish tartibi, auditni o'tkazuvchi organ va nazorat qilish shaklining belgilab qo'yilishi mamlakatimizda gender tengligini ta'minlash sohasida amalga oshirilayotgan ishlarning yanada samarali bosqichga chiqishiga xizmat qilishi shubhasiz.

<sup>2</sup>InterAction, The Gender Audit Handbook: A tool for organizational self-assessment and transformation, 2010.

### References:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrda qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi 562-son Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-dekabrda qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish haqida"gi O'RQ- 809-sonli Qonuni
3. Aliyeva K. O'zbekiston Respublikasida gender tengligining tarixi va rivojlanish tendensiyalari// Yangilanayotgan O'zbekistonda xotin-qizlarning ilm-fan taraqqiyotidagi roli va gender tengligi mavzusida I xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to'plami-Toshkent, 2021.
4. T.Narbaeva, N.Egamberdieva, X.Saydivalieva, S.Alimov Genderga oid audit o'tkazish metodologiyasi.-Toshkent, 2023.